



## **FOREIGN EXPERIENCE OF INNOVATION DEVELOPMENT**

**F.B. Shakirova**

**Tashkent State Transport University**

Today, many economically developed countries of the world consider it a strategic task to further develop the economy and to organize science-intensive production covering a wide range of industries. In fact, innovation has become a key factor in economic growth, and this has led to increased international competition in many areas, and in many countries, ITTKI spending, advanced technology, and affordability in an emerging global economy have enabled the promotion of innovative products. . In advanced forms of production organization in developed countries, the share of new knowledge in the field of specialist training, technology, equipment, and education is 70-85 percent of GDP.

## **INNOVATSION RIVOJLANTIRISHNING XORIY TAJRIBASI**

**F.B. SHAKIROVA**

**Toshkent davlat transport universiteti**

Bugungi kunda dunyoning ko'plab iqtisodiy rivojlangan davlatlari iqtisodiyotni yanada rivojlantirish uchun keng ko'lamli tarmoqlarni qamrab oluvchi ilm-fanni talab qiluvchi ishlab chiqarishni tashkil etishni strategik vazifa deb hisoblamogda. Innovatsion faoliyat aslida iqtisodiy o'sishning asosiy omiliga aylandi va bu ko'p jixatdan ushbu soxada xalqaro raqobatni kuchaytirishga olib keldi va ko'plab mamlakatlarda ITTKI xarajatlarini, ilg'or texnologiyalarni va rivojlanayotgan global iqtisodiyotda yetakchilikni ta'minlash uchun innovatsion mahsulotlarni ilgari surish imkonini berdi. Rivojlangan mamlakatlarda ishlab chiqarishni tashkil etishning ilg'or shakllarida mutaxassislar tayyorlash, texnologiya, asbob-uskunalar, ta'lim soxasidagi yangi bilimlarning ulushi



YAIMning 70-85 foizini tashkil etadi.<sup>1</sup>

Quyida iqtisodiyoti innovatsion rivojlangan mamlakatlarning global innovatsion indeksi bo'yicha yetakchi o'ntaligi ro'yxati keltirilgan.

**1-jadval.**

**Innovatsion rivojlangan mamlakatlar ro'yxati.<sup>2</sup>**

2017	2018	2019	2020
1.Shvetsariya	1.Shvetsariya	1.Shvetsariya	1.Shvetsariya
2.Angliya	2.Angliya	2.Shvetsiya	2.Shvetsiya
3.Shvetsiya	3.Shvetsiya	3.Angliya	3.Niderlandiya
4.Finlandiya	4.Niderlandiya	4.AQSH	4.AQSH
5.Niderlandiya	5. AQSH	5.Finlandiya	5.Angliya
6.AQSH	6.Finlandiya	6.Singapur	6.Daniya
7.Singapur	7.Singapur	7.Irlandiya	7.Singapur
8.Daniya	8.Irlandiya	8.Daniya	8.Finlandiya
9.Lyuksemburg	9.Lyuksemburg	9.Niderlandiya	9.Germaniya
10.Gonkong	10.Daniya	10.Germaniya	10.Irlandiya

Ushbu mamlakatlarda innovatsion rivojlanishni ta'minlashga ijobiy ta'sir ko'rsatgan omillardan biri ilmiy tadqiqot, tajriba konstruktorlik ishlariga (ITTKI) yalpi ichki maxsulotdan salmoqli mablag'ning doimiy ajratilishidir. Ushbu tadbir natijasida fan-texnika taraqqiyotining rivojlanishiga erishiladi, mamlakatda ko'plab ixtirolar, yangilik va g'oyalar vujudga kelishiga tegishli sharoit yaratiladi.

Biz innovatsion rivojlangan davlatlar AQSH, Buyuk Britaniya, Germaniya, Yaponiya, Janubiy Koreya va Xitoyning mazkur yo'nalishdagi tajribasini o'rganishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

1980-yilda AQSHning patent va savdo belglari to'g'risidagi Bey-Doul aktiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilishi milliy innovatsiya tizimida "uch

<sup>1</sup> ГлазьевС Ю Стратегия опережающего развития России в условиях глобального кризиса – М Экономика, 2010.

<sup>2</sup> Обзор инновационных кластеров в иностранных государствах //Минэконом развития России, 2011.



yoqlama spiral” modeli shakllanib, takomillashishiga sabab bo’ldi.<sup>3</sup> Bey-Doul akti universitet, kichik biznes va boshqa nodavlat tashkilotlarini federal byudjet hisobidan moliyalashtirilgan loyihalar, ilmiy-tadqiqot va kashfiyotlarni boshqarish huquqi hamda majburiyatlarini belgilab bergan.

Xozirda AQSHda innovatsion korxonalarni moliyaviy qo’llab-quvvatlashning uchta asosiy dasturi mavjud: birinchisi bu kichik biznesning innovatsion tadqiqotlarini qo’llab-quvvatlash dasturi (The Small Business Innovation Research Program-SBIR); ikkinchisi esa kichik biznesning innovatsion texnologiyalarni ommalashtirish dasturi (The Small Business Technology Transfer Program-STTR); uchinchisi kichik biznes uchun investitsion kompaniyalar tashkil etish dasturi (The Small Business Investment Company-SBIC)<sup>4</sup>.

AQSHda milliy innovatsion tizim asosan uchta yo’nalishda rivojlangan. Uning birinchi bo’g’ini ta’lim muassasalari hisoblanadi. Bular qatoriga jahon ta’lim reytingida eng yuqori o’rinlarda turgan 150 ta ta’lim muassasalari, jumladan Dortmut kolleji, Braunovsk, Yel, Kolumbiya, Kornell, Pensilvaniya, Berkli, Stenford, Viskonsinsk, Minnesota va Prinston universitetlari hamda Massachuset texnologiya instituti va ular qoshidagi ilmiy tadqiqot markazlari kiradi.<sup>5</sup>

AQSH universitetlari ilmiy yo’nalishdagi ishlarini asosiy moliyalashtirish manbasi federal byudjet hisoblanadi. Bunda tashqari universitetlar venchur kompaniyalar orqali ilmiy ishlanmalarini sanoat va iqtisodiyotning boshqa

---

<sup>3</sup> Hughes S. Making dollars out of DNA. The first major patent in biotechnology and the commercialization of molecular biology, 1974-1980 / *Ius*, an international review devoted to the history of science and its cultural influence 92 (3) 2001.

<sup>4</sup> Hughes S. Making dollars out of DNA. The first major patent in biotechnology and the commercialization of molecular biology, 1974-1980 / *Ius*, an international review devoted to the history of science and its cultural influence 92 (3) 2001.

<sup>5</sup> Сергеев В. М., Алексенкова Е.С. Становление государства и модели инновационного развития //.



tarmoqlariga yo'naltiradi.

Bizning fikrimizcha AQSH universitetlari butun dunyodan yuqori salohiyatli olimlarni jalb qiladi. Albatta innovatsiyalarni rivojlantirishda eng asosiy omil sifatida insondagi ilmiy salohiyat hisoblanadi va ushbu salohiyat yillar davomida shakllanib, jahonning fan va texnologiyalar borasidagi yetakchi olimlarning ilmiy ishlanmalari AQSH iqtisodiyotiga misli ko'rilmagan darajada foyda keltirmoqda.

Milliy innovatsiya tizimining ikkinchi bo'g'iniga hozirda AQSHda amal qilayotgan 10 mingdan ortiq ilmiy markazlar, yetakchi korxonalar tarkibidagi laboratoriyalar, davlatning ilmiy-tadqiqot institutlari kiradi.

Milliy innovatsiya tizimining uchinchi bo'g'iniga esa AQSH hududida yillar davomida tarixan shakllangan innovatsion klasterlarni kiritish mumkin. Ularning asosiy maqsadi innovatsion texnologiyalarni yaratish, saqlash yoki realizatsiya qilishda universitet va ilmiy tadqiqot markazlarini qo'llab-quvvatlashdan iborat. Shuningdek, ishlab chiqarish va texnologiyalar o'rtasidagi aloqalarni rivojlantirish maqsadida hududiy ixtisoslashtirilgan maxsus innovatsion klasterlar tashkil etiladi.<sup>6</sup> Bunday hududlardan biri "Silikon vodiysi" texnoparki bo'lib, uning AQSH venchur investitsiyalari tarkibidagi ulushi 1/3 qismni tashkil etadi.<sup>7</sup> Ushbu majmua hududida dasturiy ta'minot mikroprotssessor va boshqa informatsion texnologiyalar sohasidagi mahsulotlarni ishlab chiqarishga asoslangan Apple Inc., Intel., Adobe Systems, Advanced Micro Device, Cisco System, Symantec kabi 7 mingga yaqin yuqori texnologiyali kompaniyalar amal qiladi.

AQSHda innovatsion faoliyatni tashkil etishda davlatning roli hal qiluvchi

---

<sup>6</sup> Кластер (англ, cluster - жамланиш, гала) - узига хос хусусиятларга эга булган, мустақил равишда иш юритадиган турдош субъектларни ягона тизимга жойлаш.

<sup>7</sup> Обзор инновационных кластеров в иностранных государствах //Минэконом развития России, 2011.



ahamiyatga egadir. Agar Yaponiyada innovatsion faoliyatni tashkil etishda xususiy biznes ustuvor bo'lib, uning salmog'i katta bo'lsa, AQSHda innovatsion faoliyat davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanadi, boshqariladi va muvofiqlashtiriladi. AQSH innovatsion rivojlanishining o'ziga xos jihati shundaki davlat ahamiyatiga molik yirik ilmiy loyihalar davlat tomonidan to'liq moliyalashtiriladi. Mazkur loyihalarni ishlab chiqish, realizatsiya qilish venchur jamg'armalari va tadqiqot markazlari tomonidan amalga oshiriladi. Innovatsion rivojlanishni ta'minlashni muhim shart-sharoitlaridan biri tegishli infrastruktura yaratish, bu muammo ham davlat tomonidan hal etiladi.

AQSHda yangilik va ixtirolarni tarqatish, ularni tushuntirish, reklama qilish markazlari keng tashkil etilgan. Davlat bir tomondan investitsiyalarning yaratuvchisi sifatida ishtirok etadi, ikkinchi tomondan ularning iste'molchisi ham o'zi hisoblanadi. Investitsiyalar uchun ma'sul davlat organlari mamlakat va chet ellardagi innovatsion jarayonlarni kuzatib boradi, eng ilg'or texnologiyalarni topish, ularni ekspertiza qilish, keng tarqatish kabi amaliy ishlarni bajaradi va prognozlash ishlarini amalga oshiradi.

AQSH tajribasini o'rganib takidlash joizki AQSH jahon bozoriga innovatsion texnologiyalarni taklif qiluvchi davlatlar ichida yetakchi bo'lib, bunga kichik innovatsion korxonalarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash dasturlarining joriy qilinganligini keltirishimiz mumkin. Shuningdek, ilmiy tadqiqot ishlari bilan shug'ullanuvchi olimlarning manfaatlarini ko'zlab joriy qilingan huquqiy me'yorlar va ularni venchur kompaniyalari kabi moliyalashtirish manbalarining keng rivojlanganligi AQSHni keying yillarda innovatsion texnologiyalar bo'yicha yetakchilikni bermayotganligining yorqin misolidir.

Angliyaning innovatsion rivojlanish modelining alohida xususiyatlaridan biri ilmiy ishlanmalarning ko'proq mudofaa ahamiyatiga egaligidir. Chunki, harbiy tadqiqotlar bo'yicha Buyuk Britaniya G'arbiy Yevropa davlatlari orasida



yetakchi, dunyoda esa AQSHdan keyin ikkinchi o'rinda turadi.<sup>8</sup>

Buyuk Britaniya universitetlari dunyoning eng qadimgi ta'lim muassasalari sifatida mamlakatning innovatsion rivojlanishi bo'yicha muhim bo'g'inlardan biridir. Jumladan jahon reytingida yuqori o'rinlarda turuvchi Oksford, Kembridj, London kabi universitetlar qoshida ilmiy tadqiqot markazlari amal qiladi. Alohida ta'kidlash joizki Buyuk Britaniya oliy ta'lim muassasalarida minglab xorijiy talabalar tahsil oladi. Dunyoning turli hududlaridan kelgan bitiruvchilarning aksariyat qismi o'z ilmiy faoliyatini mamlakatning o'zida davom ettiradi.

Bugungi kunda Buyuk Britaniya olimlari insonlarning DNK tarkibini o'rganish, klonlashtirish, yuqori o'tkazuvchanlik, radiofizika, ozon tuynugi, kompyuter tomografiyasi, molekulyar biologiya, farmasevtika borasida kashfiyotlar uchun olingan Nobel mukofotlari AQSHdan keyin ikkinchi o'rinda turadi.<sup>9</sup>

Buyuk Britaniya intellektual mulkka egalik huquqi bevosita ta'lim muassasalari yoki ilmiy-tadqiqot institutlariga berilgan. Shuning uchun ilmiy xodimlar va olimlarining ishlanmalari uchun oliy ta'lim muassasalari mas'ul hisoblanadi. O'z o'rnida ilmiy ishlanmalardan olingan foydani taqsimlashda har bir muassasada qat'iy belgilangan me'yorlar mavjud. Masalan, Lafboro (Loughborough) universitetida foyda quyidagicha taqsimlanadi: avval ilmiy ishlanmaning bozor xarajatlari ya'ni patentlashtirish, marketingini yuritish, safar va biznes-reja kabilar to'liq qoplanadi. Shundan so'ng qolgan daromadni 50 foizini kashfiyotining amalga oshirgan olim, 25 foizini fakultet, 25 foizini universitet qoshidagi ilmiy ishlanmalarni tijoratlashuvini tashkil qiluvchi ofis oladi.<sup>10</sup>

---

<sup>8</sup> Колесова в.п. Осьмова М.Н Национальные инновационные системы: монография - М.: МАКС Пр 2011.

<sup>9</sup>Realising Britain's Potential: Future Strategic Chal-lenges for Britain / Cabinet Oice he Strategy Unit 2008 February.

<sup>10</sup> Realising Britain's Potential: Future Strategic Chal-lenges for Britain / Cabinet Oice he Strategy Unit 2008



Iqtisodiy manbalarda Buyuk Britaniyaning ilmiy tadqiqot va tajriba konstruktorlik ishlanmalari 3 ta yo'nalishda shakllanganini ko'rish mumkin.<sup>11</sup> Ya'ni birinchisi davlat sektori (amaliy va fundamental tadqiqotlar olib boradi), ikkinchisi oliy ta'lim sektori (fundamental tadqiqotlar olib boradi), uchinchisi xususiy sector (amaliy tadqiqot va ishlanmalar olib boradi hamda yangi texnologiyalarini iste'molchisi yoki buyurtmachisi bo'ladi) hisoblanadi. Davlat sektoridagi aksariyat ilmiy-tadqiqot ishlanmalari AQSH, Yaponiya, Fransiya va Germaniya davlatlari o'rtasidagi hamkorlik shartnomalari doirasida amalga oshiriladi.

Xulosa qilib aytganda Buyuk Britaniyada innovatsion rivojlanish negizida barqaror iqtisodiy o'sish omillari to'liq ta'minlangan bo'lib, uning ijobiy jihatlarni mamlakatimizda innovatsion rivojlanishini yo'lga qo'yish foydadan holi bo'lmaydi. Germaniyaning innovatsion rivojlanish modelini ayrim iqtisodiy manbalarda AQSHning "uch yoqlama spiral" modeliga o'xshash jihatlari mavjudligini ta'kidlashadi. Germaniya iqtisodiyoti diversifikatsiyalangan va yuqori texnologiyalarga asoslangan innovatsion mahsulotlarining xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Bunga misol tariqasida Yevropadagi yuqori yuqori texnologiyali mahsulot ishlab chiqaradigan 10 ta yirik kompaniyalarning 5 tasi Germaniyada tashkil etilganini aytish mumkin.<sup>12</sup>

Germaniyada innovatsiyalarni rivojlantirish orqali milliy iqtisodiyot barqarorligini ta'minlashdagi e'tiborli jihatlardan biri shundaki ilmiy-tadqiqot markazlari va ta'lim muassasalarning ilmiy tadqiqot ishlarini moliyalashtirishda davlat hal qiluvchi rol o'ynaydi. Masalan oliy ta'lim muassasalarining 80 %

---

February.

<sup>11</sup> Realising Britain's Potential: Future strategic Challenges for Britain. the Strategy Unit, 2008 Science and Innovation Framework 2014.

<sup>12</sup> Shakirova F.B Temir yo'l transportida investitsion va innovatsion faoliyat. 115-bet.



ilmiy-tadqiqot xarajatlari davlatga qarashli 5 ta yirik ilmiy birlashmalari hisobidan moliyalashtiriladi. O'z navbatida Germaniyada 20 % ilmiy-tadqiqot ishlari va bu sohada ish bilan band bo'lgan jami iqtisodiy faol aholining 30 foizi universitetlarda faoliyat yuritadi. Lekin davlat miqyosida ilmiy tadqiqot va tajriba konstruktorlik yo'nalishiga qilinayotgan umumiy xarajatlarning 30 foizigina davlat mablag'lari hissasiga, 70 foizi esa xususiy kompaniyalar hissasiga to'g'ri keladi.

Germaniyada innovatsion faoliyatni rag'batlantirish uchun maqsadli soliq imtiyozlari joriy etilgan. Jumladan foyda soliq bazasi ITTK ishlariga sarflangan xarajatlar miqdori kamaytirilishi, korxonalarining innovatsion faoliyat bilan shug'ullanish uchun tashkil etilgan maqsadli jamg'armalari yoki shunday jamg'armalarga yo'naltirilgan mablag'lari soliqlardan butunlay ozod etilishi, korxonalar va tashkilotlarning universitet, ilmiy tadqiqot markazlarining ilmiy tadqiqotlar olib borishga bog'liq moddiy texnik bazasini mustahkamlash bo'yicha yo'naltirilgan asbob-uskuna yoki mablag'lari miqdoriga foyda solig'i bazasi kamaytirilishi, innovatsion faoliyat bilan shug'ullanuvchi korxonalar aksiyasidan olingan dividendlarning soliqdan ozod etilishi, innovatsion loyihalarni amalga oshirayotgan korxonalarga soliq ta'tillari joriy qilinishi kabi imtiyoz va preferensiyalarni mamlakatimiz soliq tizimida ham joriy etilishi bu yo'nalishdagi ishlarimizni yanada jadallashishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Germaniya iqtisodiyotini innovatsion rivojlantirishda kichik biznes subyektlarini o'zni beqiyos. Agar yirik kompaniyalar o'z innovatsion mahsulotlarini mashinasozlik, avtomobilsozlik, kimyo sanoatiga yo'naltirsa, kichik biznes subyektlari "kelajak texnologiyalari" yaratadi.

Xalqaro ekspertlar Germaniya mualliflik huquqi himoyalanganlik darajasi bo'yicha dunyoda birinchi o'rinda turadi. Shuningdek mavjud patentlar bilan bog'liq ma'lumotlar taqdim qilishi tizimi ham yaxshi rivojlangan. Mamlakatning Myunxen va Berlin kabi yirik shaharlarida patent kutubxonalarini faoliyat yuritishi





bilan bir qatorda butun mamlakat bo'ylab 25 ta tarmoq tashkilotlari faoliyat yuritadi. Albatta bunday tajribani mamlakatimizda qo'llanilishi mualliflik huquqini himoyalash bilan birga ilmiy ishlanmalarning manfaatdorligini oshiradi.

#### REFERENCES:

1. Shadieva, G. M., & o'g'li Isoqulov, Z. S. (2022). WAYS TO REDUCE POVERTY. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(12), 957-962.
2. Ньѣматов, А. И., & Рахманбаева, Р. А. (2021). НЕКОТОРЫЕ ВОПРОСЫ ПРОГНОЗИРОВАНИЯ ПАССАЖИРСКИХ ПЕРЕВОЗОК НА ТРАНСПОРТЕ. *Science and Education*, 2(2), 168-170.
3. Шадиева, Г., & Шакирова, Ф. (2021). ИҚТИСОДИЁТНИ РАҚАМЛАШТИРИШГА ТРАНСФОРМАЦИЯЛАШУВИДА ИНТЕЛЛЕКТУАЛ МУЛКНИ РАСМИЙЛАШТИРИШНИНГ АЙРИМ МАСАЛАЛАРИ. *Экономика и образование*, (5), 381-384.
4. Shadieva, G. M., & Akbarovna, K. S. (2023). PROVIDING EMPLOYMENT BY IMPROVING THE EFFICIENCY OF FAMILY BUSINESSES. *Journal of new century innovations*, 20(3), 25-31.
5. Рахманбаева, Р. А. (2020). Главный фактор развития новой экономики постиндустриального общества. *Журнал PalArch по археологии Египта/египтологии*, 17(6), 14201-14207.
6. Абдурахмановна, Р. Р. (2022). Влияние развития цифровых информационных технологий на рынок труда. *Журнал фармацевтических негативных результатов*, 2048-2051.
7. Абдурахмановна, Р. Р. (2022). Влияние развития цифровых информационных технологий на рынок труда. *Журнал фармацевтических негативных результатов*, 2048-2051.



8. Shadiyeva, G. (2022). The Role of Family Business in the Development of the Service Industry. *American Journal of Economics and Business Management*, 5(9), 213-218.
9. Shadiyeva, G. (2022). The Role of Family Business in the Development of the Service Industry. *American Journal of Economics and Business Management*, 5(9), 213-218.
10. Shadiyeva, G. M., & Akbarovna, K. S. (2023). THE CONCEPT OF "FAMILY ECONOMY", ITS DEVELOPMENT. *Journal of new century innovations*, 20(3), 32-41.
11. Shadiyeva, G. M., & Urozaliev, E. (2022). HISTORY OF RAILWAY TRANSPORT DEVELOPMENT IN OUR COUNTRY AND FOREIGN EXPERIENCES. *Eurasian Journal of Academic Research*, 2(8), 221-226.
12. Mardiyevna, S. G., & Abdusamatovich, J. J. (2022). SANOAT 4.0 KONSEPSIYASI VA UNGA TA'SIR ETUVCHI RISKLAR. *Current Issues of Bio Economics and Digitalization in the Sustainable Development of Regions*, 712-721.
13. Шакирова, Ф. Б. (2022). ИННОВАЦИОН РИВОЖЛАНИШНИ ТАЪМИНЛАШДА ХОРИЖИЙ ДАВЛАТЛАР ТАЖРИБАСИ. *Journal of new century innovations*, 17(1), 106-113.
14. Шакирова, Ф. Б. (2022). ИННОВАЦИОН РИВОЖЛАНИШ МОДЕЛЛАРИ ВА УЛАРНИНГ ИҚТИСОДИЙ ЎСИШ БИЛАН АЛОҚАДОРЛИГИ. *Journal of new century innovations*, 17(1), 101-105.
15. Шакирова, Ф. Б. (2022). ТРАНСПОРТ СОҲАСИДА ДАВЛАТ-ХУСУСИЙ ШЕРИКЛИК МЕХАНИЗМЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ ХОРИЖИ ТАЖРИБАСИ. *Journal of new century innovations*, 15(3), 66-74.



- 16.Shakirova, F. B. (2022). INNOVATIVE DEVELOPMENT MODELS AND THEIR RELATIONSHIP WITH ECONOMIC GROWTH. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(10), 662-665.
- 17.Shakirova, F. B. (2022). ТЕМИР ЙЎЛ ТРАНСПОРТИ СОҲАСИДАГИ ДАВЛАТ-ХУСУСИЙ ШЕРИКЧИЛИК МУНОСАБАТЛАРИ. *Journal of new century innovations*, 16(3), 82-85.
- 18.Shakirova, F. B., & Sattorova, S. B. (2022). “О ‘ЗБЕКИСТОН ТЕМИР YO ‘LLARI” AJ FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA XALQARO NAMKORLIK FAOLIYATI. *Eurasian Journal of Academic Research*, 2(9), 4-9.
- 19.Shakirova, F. B. (2022). ЎЗБЕКИСТОНДА ИННОВАЦИОН РИВОЖЛАНИШНИНГ НАЗАРИЯЛАРИ, ШАКЛЛАНИШИ ВА МИЛЛИЙ ИҚТИСОДИЁТ ЎСИШИНИ ТАЪМИНЛАШДАГИ ИМКОНИЯТЛАРИ. *Journal of new century innovations*, 16(3), 86-96.
- 20.Шакирова, Ф. Б. (2022). ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ЭКОНОМИЧЕСКОГО РОСТА НА ОСНОВЕ ИННОВАЦИОННОГО РАЗВИТИЯ. *Scientific Impulse*, 1(2), 382-390.
- 21.Shadieva, G., & Shakirova, F. (2020). MILLIY INNOVATION TIZIMNI RIVOJLANTIRISHDA INVESTITSIYA VA INNOVATSIYALARNING O‘RNI. *SCIENCE AND INNOVATIVE DEVELOPMENT*, (4), 9-16.